

## 2020- yil yanvar-may oylarida Surxondaryo viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Xizmatlar sohasining rivojlanishi hozirgi zamон iqtisodiyotda muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiyotda xizmatlar o'sishining asosiy omillarini ilmiy bilimlar, nomoddiy shakldagi to'plamlar, axborot texnologiyalari va tadbirkorlik faoliyatni integratsiyasi kabi omillar tashkil etadi.

Iqtisodiyotning ushbu sektori turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga olib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ushbu faoliyatning yakuniy natijasi tayyor mahsulot emas, balki ko'rsatilgan xizmatlardir. Xizmatlar nafaqat korxonalarga, balki jismoniy shaxslar - yakuniy iste'molchilarga ham ko'rsatilishi mumkin.

### 2020- yil yanvar-may oylarida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari



**Xizmatlar sohasi** bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil turdag'i xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir. Ushbu sohani ko'pincha rivojlangan zamonaliviy infratuzilma tufayli sanoatdan keyingi iqtisodiy tuzilma tarzida ko'rildi.

Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumдорligi va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga oladi.

Mazkur soha xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlari, shuningdek, notijorat tashkilotlarini qamrab oladi.

---

**2020-yil 1-iyun holatiga ko'ra,  
xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan  
korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**

---

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni - 22765 birlikda

Ularning umumiyligi sonidagi ulushi - 62,2 %

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlari - 130,1 %




**2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, faoliyat  
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning tarkibi, % da  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi – 62,2 %, sanoat – 14,9 %, qurilish - 10,9 % ga yetdi va atigi 12,3 % i qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohasi hissiga to'g'ri keldi.

**2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat  
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar yuqori ulushni (43,1 %) egallaydi. Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi 10,6 % ni tashkil etdi.



### Dastlabki ma'lumotlar


Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi 5,6 % ga yetdi. Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibidagi ulushi 1,8 % ga teng bo'ldi. Sog'lioni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi 2,4 % ni tashkil etdi.

**Ma'lumot uchun:** 2019- yil 1- iyun holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida 17,4 mingta korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatgan. Ularning umumiyligi tarkibida savdo xizmatlari – 38,1 %, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar - 10,3 %, tashish va saqlash - 6,1 %, axborot va aloqa - 1,9 %, sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish - 2,5 % hamda boshqa turdag'i xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar - 41,1 % ni tashkil etgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagi bo'lib, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish hamda insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.

### 2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyligi sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi, % da

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiyligi sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hissasi 90,2 % ga to'g'ri keladi.

2020- yil 1- may holatiga ko'ra, yirik tashkilotlar ulushi 22,7 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining o'sishi, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiyligini o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

**2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida  
faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik  
subyektlari to'g'risida ma'lumot  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, o'tgan yilning shu davriga nisbatan xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 10850 taga ko'paydi.

Natijada, ularning soni 2381 tani tashkil etdi va o'sishi esa 28,1 % ga oshdi. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining umumiyligini sonida xizmatlar sohasida band bo'lganlarning ulushi 55,3 % ga yetdi.

**Taqqoslash uchun:** o'tgan yilning shu davrida xizmatlar sohasida band bo'lgan kichik korxona va tashkilotlar sonining ulushi 55,3 % ekvivalentida qayd etildi.

Hozirgi kunda iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan xizmatlar sohasining o'rni juda katta ahamiyatga egadir.

Dastlabki ma'lumotlar

Koronavirus infeksiyasi (COVID-19) tarqalishining oldini olish hamda, unga qarshi kurashish maqsadida insonlarning harakatlanishiga cheklovlar kiritish va korxonalar faoliyatini to'xtatish orqali misli ko'rilmagan choralar ko'rildi. Bu esa deyarli barcha faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarish va iste'mol hajmlarining keskin qisqarishiga olib keldi va o'z navbatida xizmatlar sohasining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

## Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

Natijada, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020- yil yanvar-aprel oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 2841,3 mlrd. So'mga yetdi. Uning nominal hajmi bor yo'g'i 200,9 mlrd. so'mga oshdi. Taqqoslama ekvivalentda, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 96,5 % ni tashkil etdi.



**Xizmatlar** – iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiruvchi yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayriboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.


Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumdorligini va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga oladi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari  
(2020-yil yanvar-may oylarida)**

	Hajmi, mlrd. So'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>2841,3</b>	<b>96,5</b>
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	149,3	107,9
Moliyaviy xizmatlar	573,2	127,6
Transport xizmatlari	408,4	86,3
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	387,3	87,7
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	85,7	83,5
Savdo xizmatlari	1127,0	94,0
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	74,1	78,2
Tal'lim sohasidagi xizmatlar	109,6	115,8
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	33,3	92,6
Ijara xizmatlari	61,5	81,6
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	66,4	79,8
Shaxsiy xizmatlar	67,8	81,7
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	26,4	60,6
Boshqa xizmatlar	58,6	79,8

2020- yilning yanvar-may oylarida ko'rsatilgan xizmatlar hajmining solishtirma narxlardagi o'sishi savdo xizmatlarda 39,7 foizga , moliyaviy xizmatlar 20,2 foizga, transport xizmatlari 14,4 foizga, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 5,3 foizga, jami ko'rsatilgan xizmatlar hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan atigi 96,5 % ni tashkil etdi.


**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan  
bozor xizmatlarining tarkibi, % da**  
(2020- yil yanvar-may oylarida)



Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar ko'rsatish hajmlarining uncha katta bo'lmagan o'sishi kuzatildi, ularning ulushi atigi 2,5 % ni tashkil etdi. Shuningdek, sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar bo'yicha past ulush qayd etildi - 1,2 %, me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi, shuningdek, ijara sohasidagi xizmatlarning ulushi 2,2 % dan qayd etildi.

Dastlabki ma'lumotlar

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan  
bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari,  
2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan % da  
(2020- yil yanvar-may oylarida)**



Yuqori o'sish moliyaviy xizmatlar (27,6 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida (7,9 %) qayd etildi.

Xizmatlar sohasiga taalluqli bo'lgan boshqa barcha faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlarining pasayishi kuzatilmogda.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq bo'lgan bozor xizmatlari hajmi sezilarli darajada (21,8 % ga) pasayishi qayd etildi . Shu bilan birga, yashash va ovqatlanish xizmatlari (16,5 % ga), ijara xizmatlari (18,4 % ga), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (7,4% ga), kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar (20,2 % ga), transport xizmatlari (13,7 % ga), savdo xizmatlari (6,0 % ga), shuningdek, shaxsiy xizmatlar (18.3% ga) xizmatlarda pasayish kuzatildi

Dastlabki ma'lumotlar

2020- yil yanvar-may oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiylajmi savdo xizmatlarining ulushi 39,7 % ni tashkil etib, bu 1127,0 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

**Savdo** bu - tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

Joriy davrda chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiylajmi savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtdan uch qismiga, aniqrog'i 68,2 % iga to'g'ri keladi.


---

**Savdo xizmatlari tarkibi, % da**  
(2020- yil yanvar-may oylarida)


---

**Savdo xizmatlari - 100,0 %**


---



Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosiga, jumladan, ulami ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda



Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)



Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar

Boshqa hududlar bilan taqqoslaganda, chakana savdo bo'yicha xizmatlarning eng katta ulushi Andijon (86,5 %), Qashqadaryo (84,1 %) va Jizzax (83,0 %) viloyatlariga to'g'ri keladi.

## Moliyaviy xizmatlar (2020- yil yanvar-may oylarida)



2020- yil yanvar-may oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 573,2 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 169,6 mlrd. so'mga oshdi. Moliyaviy xizmatlarning o'sishi 33,1 % ni tashkil etdi.

Zamonaviy bank xizmatlarini taqdim etish uchun shart-sharoitlar yaratishda, innovatsion bank texnologiyalarining joriy etilishi orqali chakana xizmatlarni ko'rsatishga ixtisoslashgan "raqamli" banklar va ularning bo'linmalari faoliyatini tashkil etish, masofadan turib bank xizmatlarini takomillashtirish va to'lov tizimini yanada rivojlantirish, moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Moliyaviy xizmatlar hajmi - moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

## Moliyaviy xizmatlar tarkibi, % da (2020- yil yanvar-may oylarida)


Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi 95,1 % ni tashkil etadi.

Joriy davrda sug'urta xizmatlarining ulushi 3,1 % oralig'ida qayd etildi.



Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, AKT rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta'sir qiladi, sizga katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va umumlashtirishga imkon beradi, strategik darajada boshqaruv uchun katta imkoniyatlar ochadi.

## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2020- yil yanvar-may oylarida)




2020- yil yanvar-may oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 149,3 mlrd. so'm darajasida belgilandi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan ushbu turdag'i xizmatlarning o'sish sur'ati 107,9 % ga yetdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiyligi hajmidagi ulushi 5,2 % ni tashkil etdi

AKTdan faol foydalanish infratuzilmasi yuqori kadrlar salohiyati va yangi ko'rinishdagi texnika va texnologiyalarga asoslangan.

**Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, % da**  
(2020- yil yanvar-may oylarida)



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egallab, 96,0 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiyligi hajmidagi ulushida kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar - 1,1 %, boshqa aloqa xizmatlari - 0,4 %, noshirlik xizmatlari - 1,8 % va axborot sohasidagi xizmatlar - 0,7 % ni tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlar


Ma'lumki, fuqarolarni yuqori sifatli va hamyonbop narxlardagi ta'lim bilan ta'minlash, jamiyat taraqqiyotini, uning kelajagini aniq belgilab beradigan vazifadir.



## Ta'lim sohasidagi xizmatlar (2020- yil yanvar-may oylarida)



2020- yil yanvar-may oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 109,6 mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi ulushi 3,8 % ni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 94,7 % ni tashkil etdi.



Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2020-yil yanvar-may oylarida)

O'tgan yilning shu davriga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati atigi 83,5 % ni tashkil etdi, ularning hajmi esa 85,8 mlrd. so'mga teng bo'lgan.

Ushbu davrda ularning bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi atigi 3,0 % ni tashkil etdi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi



85,8 mlrd. so'm



6,3 mlrd. so'm



Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi

79,5 mlrd. so'm



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar hajmi

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar - oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatalgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatidir.

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi (2020- yil yanvar-may oylarida)

85,7 %



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar

Yashash bo'yicha xizmatlar



3,0 %

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiyligi hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi 85,7 % bilan ustunlik qiladi.

2020- yil yanvar-may oylarida yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 3,0 % ni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu - sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya-epidemiologiya profilidagi muassasalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

## Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2020- yil yanvar-may oylarida)

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da	Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi, ming so'm
<b>Surxondaryo viloyati *</b>	<b>2841,3</b>	<b>96,5</b>	<b>1 078,3</b>
Termiz sh	1338,1	105,1	7430,0
<b>tumanlar:</b>			
Oltinsoy	77,0	88,2	435,6
Angor	98,2	88,7	740,7
Bandixon	17,1	93,1	237,9
Boysun	64,0	90,3	550,4
Muzrabot	62,4	87,0	440,6
Denov	425,4	91,5	1103,5
Jarqo'rg'on	106,6	87,9	488,4
Qumqo'rg'on	117,8	95,7	498,7
Qiziriq	62,0	88,0	550,5
Sariosiyo	109,2	91,4	528,2
Termiz	64,0	70,9	828,0
Uzun	84,2	90,1	482,1
Sherobod	107,1	89,6	553,4
Sho'rchi	107,1	89,6	512,5

<sup>\*</sup>) Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmlarni qo'shgan holda

Shu bilan birga, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Termiz shaharda (1338,1 mlrd. so'm), Denov (425,4 mlrd. so'm), Qumqo'rg'on

*Dastlabki ma'lumotlar*  
(117,8 mlrd. so'm) va Sariosiyo (109,2 mlrd. so'm) viloyatlarida qayd etildi.

### Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

2020- yil yanvar-may oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 1 078,3 ming so'mga yetdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 94,3 % ni tashkil etdi.

**Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi-  
1 078,3 ming so'm**

**2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan**



Ma'lumki, xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Xizmatlar sohasining tarmoqlar tarkibi va texnologiyalari tobora murakkablashib borishi, mahsulot sifati va rang-barangligini oshirish, shuningdek, yuqori texnologiyali xizmatlar tarmoqlarining jadal rivojlanishi korxona va tashkilotlar, uy xo'jaliklarining samaradorligi va raqobatbardoshligini yanada oshirishga yordam beradi.

#### Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

Mas'ul: P.Eshboyeva

Tel: (76) 225-65-91



# SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

*Dastlabki ma'lumotlar*